lo, so‘zlovchining voqelik bilan bilvosita yoki bevosita munosabatdaligi, harakat/holatning vaqt chizig‘ining qaysi kesmasida sodir bo‘layotganligini bilish katta ahamiyatga ega. Demak, pragmatik omillarning o‘zi ham rang-barang, ularning har birini pragmatik mazmun va so‘zlovchi intensiyasi hamda nutqiy natija nuqtai nazaridan atroflicha tahlil qilish amaliy tilshunoslik, tildan amaliy foydalanish samaradorligini oshirish muammolari yechimida katta ahamiyat kasb etadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

(1). Эрназарова М. Грамматик маъно лисоний ва прагматик омиллар яхлитлигида. Фил. фан. докт. дисс., Тошкент, 2017.

(2). Неъматов Ҳ., Менглиев Б. Ғафур Ғуломнинг лисоний имкониятлардан фойдаланиш маҳорати. Ғафур Ғулом ва давримиз (тўплам). Қарши, 2003, 81-бет.

(3). Юлдошева Н. Содда гап қолиплари воқеланишига таъсир қилувчи морфологик омиллар ҳақида. FarDU, “Ilmiy xabarlar”, 2021, 5-сон, 41–48-бетлар.

(4). Мусулманова Н.Р. Грамматик шаклларда категориал, ёндаш ва ҳамроҳ маъно. Тошкент, “Фан’, 2012.

Qurbanova Zulxumor Azamat qizi (O‘zMU Xorijiy filologiya fakulteti „Nemis filologiyasi” kafedrasi tayanch doktoranti; E-mail: zulxumor.qurbanova2022@mail.ru)

LUG‘ATLARDA FRAZEOLOGIZMLAR PRAGMATIKASI

Annotatsiya. *Mazkur maqolada umumiy va ixtisoslashgan lug‘atlarda frazeologizmlarning semantik-pragmatik xususiyatlarini aks ettirish muammolari tahlil qilingan. Tadqiqotda frazeologik birliklarning murakkab semantik strukturasi va pragmatik potensialini leksikografik tavsiflash masalalari yoritiladi. Shuningdek, nazariy va amaliy leksikografiya tamoyillari hamda foydalanuvchi ehtiyojlari uyg‘unligida frazeologik birliklarni lug‘atlarda berish bo‘yicha tegishli tavsiyalar ishlab chiqilgan.*

Kalit so‘zlar: *frazeologiya, pragmatika, leksikografiya, til didaktikasi, tarjima, semantika, frazeologik birlik, uslubiy rang, kontekst, lisoniy ta’sir, foydalanuvchi ehtiyojlari.*

ПРАГМАТИКА ФРАЗЕОЛОГИЗМОВ В СЛОВАРЯХ

Аннотация. *В данной статье анализируются проблемы отражения семантико-прагматических особенностей фразеологизмов в общих и специальных словарях. В исследовании освещаются вопросы лексикографического описания сложной семантической структуры и прагматического потенциала фразеологических единиц. Также разработаны соответствующие рекомендации по представлению фразеологизмов в словарях с учетом принципов теоретической и практической лексикографии, а также потребностей пользователей.*

Ключевые слова: *фразеология, прагматика, лексикография, языковая дидактика, перевод, семантика, фразеологизм, стилистическая окраска, контекст, языковое воздействие, потребности пользователей.*

PRAGMATICS OF PHRASEOLOGISMS IN DICTIONARIES

Annotation. *This article analyzes the challenges of representing the semantic-pragmatic features of phraseological units in general and specialized dictionaries. The research explores the issues of lexicographical description regarding the complex semantic structure and pragmatic potential of phraseological units. Furthermore, appropriate recommendations for including phraseological units in dictionaries have been developed, integrating the principles of theoretical and practical lexicography with user-oriented needs.*

Key words: *phraseology, pragmatics, lexicography, language didactics, translation, semantics, phraseological unit, stylistic color, context, linguistic influence, user needs.*

Kirish. XX asrning 70-yillaridan boshlab tilshunoslikda yuz bergan kommunikativ-pragmatik burilish lingvistik tadqiqotlarda funksional yo‘nalishning ustuvor mavqega chiqishini ta’minladi. An’anaviy qiyosiy-tarixiy yoki tizimli-lingvistik yondashuvlardan farqli o‘laroq, zamonaviy tadqiqotlar diqqat markazida til birliklarining turli kommunikativ kontekstlarda qo‘llanishi va ularning pragmatik ta’sir potentsiali turadi.

Ushbu tamoyillar frazeologiya sohasidagi izlanishlar uchun ham g‘oyat dolzarbdir. Frazeologiyaning mustaqil fan sifatida shakllanish bosqichida, asosan, turli tillar frazeologik fondining tizimli-struktur jihatlari tadqiq etilgan bo‘lsa, hozirgi bosqichda frazemalarning funksional-pragmatik xususiyatlari birinchi o‘ringa chiqmoqda. Bunda frazeologizmlarning matndagi (kontekstual) reallashuvi, tipik nutqiy vaziyat-

lardagi funksiyalari, kommunikativ salohiyati hamda semantik-pragmatik imkoniyatlarini tahlil qilish muhim ahamiyat kasb etadi [1].

Darhaqiqat, frazeologik birliklarning kontekstual va matniy qo‘llanish holatlarini sinchkovlik bilan o‘rganishgina ularning murakkab semantik strukturasi va pragmatik tabiati haqida ishonchli xulosalar chiqarishga imkon beradi. Frazeologizmlarning ma’no ko‘lami va funksional imkoniyatlarini batafsil yoritish quyidagi sohalar rivoji uchun xizmat qiladi:

• Leksikografiyada: umumiy va maxsus lug‘atlarda frazemalarning adekvat aks ettirilishi uchun nazariy asos bo‘ladi [2].

• Lingvodidaktikada: til o‘rgatish jarayonida frazeologik fondni tizimli va samarali o‘zlashtirishni ta’minlaydi.

• Tarjimashunoslikda: tillarning o‘ziga xos frazeologik manzarasini qiyosiy tahlil qilish orqali asl nusxa ma’nosini boshqa tilga adekvat o‘girish imkoniyatini yaratadi.

Shu nuqtayi nazardan, har bir frazeologik iboraning semantik tarkibi va pragmatik valentligini tadqiq etish zamonaviy tilshunoslikning eng dolzarb vazifalaridan biri bo‘lib qolmoqda.

Mavzuga oid adabiyotlarning tahlili. Pragmalingvistika tilshunoslikning mustaqil yo‘nalishi sifatida XX asrning 60–70-yillarida shakllandi. Mazkur sohaning nazariy asoslarini tadqiq etishda professor Sh.Safarovning izlanishlari alohida ahamiyatga ega. Olimning qayd etishicha, 1970-yilda Dordrext shahrida o‘tkazilgan «Tabiiy tillar pragmatikasi» (Pragmatics of Natural Languages) mavzusidagi xalqaro konferensiya soha rivojida burilish yasadi. Anjuman materiallari muharriri, professor M.Bar-Hillel ta’kidlaganidek, tabiiy til vositasida amalga oshiriladigan muloqotning pragmatik xususiyatlari sintaktik va semantik qonuniyatlar kabi lingvistik nazariya doirasida chuqur tadqiq etilishi lozim [3].

Sh.Safarov pragmalingvistika doirasidagi turli nazariy qarashlarni umumlashtirib, ushbu sohaga quyidagicha ta’rif beradi: "Pragmatika muloqot jarayonida lisoniy birliklarni tanlab olish, ularni qo‘llash hamda ushbu birliklarning muloqot ishtirokchilariga ta’siri masalalarini o‘rganuvchi sohadir". Bunda lisoniy hodisalar keng ma’nodagi kontekst va kommunikatsiya shart-sharoitlari bilan bog‘liq holda tahlil qilinadi. Bu esa, o‘z navbatida, muayyan nutqiy muhitdagi lisoniy cheklov va to‘siqlarni aniqlash imkonini beradi.

O‘zbek tilshunosligida frazeologizmlarning tizimli tadqiqi professor Sh.Rahmatullayev nomi bilan uzviy bog‘liqdir. Olimning "O‘zbek tili frazeologik lug‘ati"da frazeologik birliklarning tabiati va klassifikatsiyasi fundamental darajada yoritilgan. Sh.Rahmatullayev ta’rifiga ko‘ra, birikma frazeologizm maqomini olishi uchun tarkibidagi so‘zlar turg‘un bo‘lishi va majoziy (ko‘chma) ma’no ifodalashi shart. Frazeologik birlikning semantik yaxlitligi uning tarkibiy qismlari ma’nosining oddiy yig‘indisidan iborat bo‘lmay, balki umumlashgan, "maxraj ma’no" sifatida namoyon bo‘ladi [4]. Muallif frazeologizmlarning uchta asosiy differensial belgisini ko‘rsatib o‘tadi:

1. Nutq jarayoniga qadar tilda tayyor holda mavjudligi.
2. Ma’no yaxlitligi.
3. Tuzilishi va tarkibining barqarorligi.

Frazeologizmlar tilning lug‘at tarkibini boyitish bilan birga, badiiy matn ekspressivligini ta’minlovchi yetakchi vositalardan biri hisoblanadi. Ular muallifga voqea-hodisalar va obrazlar xarakterini ta’sirchan ifodalash imkonini beradi. Masalan, “oyoq yalang” (kambag‘al, qashshoq) iborasi ham denotativ (o‘z), ham konnotativ (ko‘chma) ma’nolarda qo‘llanishi mumkin. Ushbu birlikning aynan qaysi ma’noda realizatsiya qilinayotganligini faqat kontekstual tahlil orqali aniqlash mumkin, bu esa pragmatik yondashuvning zarurligini yana bir bor tasdiqlaydi.

Qiyosiy frazeologiya va tarjimashunoslik masalalarida M.I.Umarxo‘jayev va K.N.Nazarovlar tomonidan tuzilgan “Nemischa-o‘zbekcha-ruscha frazeologik lug‘at” katta amaliy ahamiyatga ega. Mazkur lug‘atda nemis tili frazeologizmlarining o‘zbek va rus tillaridagi ekvivalentlari qiyosiy-tipologik tahlil qilingan [5]. Masalan, nemis tilidagi *“Von der Hand in den Mund leben”* iborasi o‘zbek tilidagi *“uchma-uch hayot kechirmoq”* yoki *“qo‘l uchida yashamoq”* variantlari bilan muvofiqlashtirilgan. Bunday leksikografik manbalar tillararo frazeologik muqobillikni aniqlashda va lingvomadaniy farqlarni interpretatsiya qilishda muhim poydevor bo‘lib xizmat qiladi.

- Zamonaviy leksikografiyada bir tilli va ko‘p tilli (xususan, nemis tili ishtirokidagi) umumiy hamda maxsus lug‘atlarda frazeologik birliklarning semantik-pragmatik ko‘lamini yoritish masalasi hamon dolzarbligicha qolmoqda. O‘tkazilgan tahlillar shuni ko‘rsatadiki, amaliy leksikografiyada frazeologik semantik-pragmatika muammolari hali tizimli ravishda hal etilmagan (Grzybek 1984, Kispál 2000, 2007; Mieder 2003, Korhonen 2011, Jesenšek 2014, 2018).

Tadqiqot jarayonida nemis tilining eng nufuzli leksikografik manbalari (DWDS, Duden online, Duden 11) tahlil qilinganda, frazeologik semantik-pragmatikaning quyidagi muhim jihatlari yetarli darajada tizimlashtirilmaganligi aniqlandi:

• idiomatiklik darajasi (tasviriylik): frazeologizmning obrazli asosi va uning semantik strukturadagi o‘rni;

• ekspressivlik va emotsionallik: birlikning nutqdagi konnotativ va uslubiy bo‘yoqdorlik darajasi;

• kontekstual valentlik: frazemaning muayyan matn muhitidagi semantik-sintaktik bog‘lanish imkoniyatlari;

• illokutiv potentsial: so‘zlovchining nutqiy akt orqali ko‘zlagan kommunikativ maqsadi va pragmatik munosabati;

• janriy-stilistik xususiyatlar: birliklarning diskurs turlari va ommaviy axborot vositalari uslubiga xoslanganligi.

Tadqiqot metodologiyasi. Tadqiqotning metodologik asosi sifatida quyidagi usullardan foydalanildi:

1. Deskriptiv (tavsifiy) metod: frazeologik birliklarning lug‘atlardagi mavjud holatini va berilish usullarini tizimli tavsiflash uchun.

2. Komparativ (qiyosiy-tipologik) tahlil: nemis va o‘zbek tillaridagi frazeologizmlarning semantik-pragmatik muqobilligini va farqli jihatlarini aniqlash maqsadida.

3. Kontekstual tahlil: frazemalarning matn ichidagi ma’no transformatsiyasi va pragmatik yukini (kontekstual ma'nosini) o‘rganish uchun.

4. Komponent tahlil: frazeologik birikma tarkibidagi komponentlarning semantik vazifasini va ularning yaxlit ma’no shakllanishidagi o‘rnini yoritish uchun.

Mazkur tadqiqotda pragmatik yondashuv asosiy mezon qilib olingan bo‘lib, u lisoniy birliklarni shunchaki turg‘un birikma emas, balki muloqot jarayonida faol realizatsiya qilinuvchi, so‘zlovchi niyatini (intentiyasini) ifodalovchi dinamik vosita sifatida o‘rganishga yo‘naltirilgan.

Tahlil va natijalar. Nemis tilining nufuzli leksikografik manbalari (DWDS, Duden online, Duden 11) tahlili shuni ko‘rsatadiki, frazeologik birliklarning (FB) semantik-pragmatik xususiyatlarini yoritishda muayyan metodologik nomuvofiqliklar saqlanib qolmoqda. Tadqiqot davomida aniqlangan natijalar quyidagi aspektlar bo‘yicha tizimlashtirildi:

Idiomatiklik va obrazlilik aspekti. O‘lim tushunchasini ifodalovchi “ins Gras beißen” va “den Löffel abgeben” iboralari misolida lug‘atlardagi tahliliy yondashuv o‘rganildi:

- “ins Gras beißen”: DWDS lug‘atida ushbu birlik *“qo‘pol”* (derb), Duden nashrlarida esa *“so‘zlashuv uslubiga xos”* (ugs.) stilistik belgilari bilan ko‘rsatilgan. Duden online iboraning etimologik asosini (jangchining o‘lim oldidan yerni tishlashi) keltirsa-da, DWDS faqat semantik ekvivalent berish bilan cheklangan.

- “den Löffel abgeben”: Ushbu FB barcha lug‘atlarda so‘zlashuv uslubiga xos deb qayd etilgan. Duden 11 uning evfemistik xarakterini va hayot uchun zarur bo‘lgan "ovqatlanish" jarayoni bilan bog‘liq metonimik asosini ko‘rsatib o‘tgan.

Lug‘atlarda, ko‘pincha, frazemaning murakkab semantikasi bitta leksema (masalan, *sterben*) bilan almashtirilishi natijasida uning ekspressiv bo‘yog‘i va madaniy-tarixiy remotivatsiyasi (obrazning qayta jonlanishi) yo‘qoladi.

Ekspressivlik va baholash aspekti:

–“etw. an den Mann bringen” iborasi tahlili shuni ko‘rsatadiki, DWDS uni *“biror narsadan qutulish”* (loswerden), Duden esa *“sotish”* (verkaufen) yoki *“ma’lum qilish”* ma’nolarida tavsiflaydi. Muammo: Ushbu iborada so‘zlovchining subyektiv munosabati (baholash komponenti) lug‘at maqolasida eksplitsit (ochiq) ko‘rsatilmaydi. Pragmatik mazmun faqatgina illyustrativ nutqiy misollar orqali implitsit (yashirin) tarzda namoyon bo‘ladi.

Kontekstuallik va illokutiv potentsial. Frazeologizmlarning pragmatik funksiyasi ko‘pincha ularning diskursiv reallashuvi bilan belgilanadi:

–“neue Besen kehren gut”: Lug‘atlarda ushbu maqolning ma’nosi "yangi ish boshlagan kishining g‘ayrati" sifatida berilgan. Biroq kontekstual tahlil uning tarkibida "tizimli o‘zgarishlar" yoki yangi rahbariyatga nisbatan "skeptitsizm" (shubha) kabi qo‘shimcha pragmatik ma’nolar borligini ko‘rsatadi;

–“junge/jüngere Beine haben”: Lug‘atlarda "yosh bo‘lish" yoki "yaxshi harakatlanish" deb izohlangan. Vaholanki, real nutqiy vaziyatda bu ibora, ko‘pincha, yoshlardan yordam so‘rash yoki buyruq berish (direktiv illokutiv maqsad) funksiyasini bajaradi.

Kommunikativ intentivlik (so‘zlovchi niyati):

–“sich etw. aus dem Kopf schlagen” iborasi misolida pragmatik ma’no komponentlarining yetishmasligi yaqqol ko‘rinadi. Lug‘atlar uni shunchaki "niyatdan voz kechish" deb izohlaydi. Tahlil: Aslida, bu ibora so‘zlovchining subyektiv-manfiy munosabatini (rejani noo‘rin yoki imkonsiz deb hisoblash) ifodalaydi. Lug‘at maqolalarida bunday modal-ekspressiv ma’nolarning aks etmasligi tillararo muloqotda pragmatik interferensiyaga (anglashilmovchilikka) sabab bo‘lishi mumkin.

Umumiy xulosalar:

1. Reduksionistik yondashuv. Frazeologik semantik-pragmatika lug‘atlarda, ko‘pincha, denotativ ma’noga qaytariladi (reduksiya qilinadi), natijada birlikning konnotativ va funksional yuklamasi e’tibordan chetda qoladi.

2. Stilistik nomuvofiqlik. Ma’no qamrovini ochishda sinonimik munosabatlar yetarli darajada ko‘rsatilmaydi, stilistik markyorlar (belgilar) esa nufuzli lug‘atlarda ham o‘zaro mos kelmaydi.

3. Kontekstual bog‘liqlik. Pragmatik komponentlar lug‘at ta’riflarida (definitsiyalarda) emas, balki asosan illyustrativ misollar orqali beriladi. Bu esa zamonaviy leksikografiyada pragmatik parametrlashtirilgan maxsus frazeologik lug‘atlarni tuzish zaruriyatini tug‘diradi.

Xulosa. Frazeologik birliklarning pragmatik potentsiali. Lug‘atlarda frazeologiyaning pragmatik xususiyatlarini adekvat aks ettirish lisoniy ma’noni leksikografik tavsiflashning pragmatik konsepsiyasi asosidagina amalga oshirilishi mumkin. Bu lisoniy belgi ma’nosini uning qo‘llanish qoidalari yig‘indisi (foydalanish qoidalari, predikatsiya va pragmatik vaziyat kombinatsiyasi) sifatida talqin qilishni taqozo etadi . Frazeologizmlar tahlilida ularning pragmatik, diskursiv va assotsiativ imkoniyatlari kompleks tarzda hisobga olinishi zarur.

1. **Ma’lumotlar ko‘lami va diversifikatsiyasi.** Lug‘at maqolalarida frazeologik semantik-pragmatikaga oid ma’lumotlar sohasi tipologik va funksional jihatdan keng qamrovli bo‘lishi lozim. Bunda leksikografik axborot faqat denotativ semantika bilan cheklanib qolmay, balki nondenotativ aspektlarni (tasviriylik, matn yaratish salohiyati, kommunikativ sohalar, matn turlari va janriy cheklovlar) ham o‘z ichiga olishi shart.

2. **Korpus lingvistikasi va metodologik yondashuv.** Ma’noni tavsiflashning pragmatik konsepsiyasi tilning real lisoniy amaliyotini (*usance*) muntazam kuzatishni talab qiladi. Shu sababli frazeologik birliklarni lug‘atga kiritish va ularni tavsiflashda til korpuslarini (*Corpus linguistics*) tizimli baholash hamda tahlil qilish fundamental metodologik ahamiyat kasb etadi.

3. **Leksikografik parametrlashtirishning ko‘p o‘lchovliligi.** Korpus asosidagi ko‘p o‘lchovli leksikografik tavsif lug‘at foydalanuvchisi uchun quyidagi imkoniyatlarni kafolatlashi lozim:

1. Alohida iboralarning denotativ va konnotativ ma’no imkoniyatlarini differensial tushunish.

2. Frazemaning matndagi diskursiv xatti-harakati va pragmatik o‘ziga xosliklarini anglash.

3. Lisoniy birlikning boshqa (frazeologik va leksik) birliklar bilan semantik-paradigmatik aloqalarini tizimli aniqlash.

4. **Interpretatsiya aniqligi va kommunikativ muvofiqlik.** Frazeologiyaning murakkab semantik-pragmatik tabiati leksikografik manbalarda shunday aks etishi kerakki, natijada muallif niyati (intensiya) va foydalanuvchi talqini (interpretatsiya) o‘rtasidagi tafovut minimal darajaga tushishi ta’minlansin. Bu, o‘z navbatida, tillararo muloqotda pragmatik interferensiyaning oldini oladi.

Xulosa qilib aytganda, zamonaviy nemis-o‘zbek leksikografiyasining istiqboldagi ustuvor vazifasi frazeologizmlarni shunchaki turg‘un birikma sifatida emas, balki jonli muloqotning dinamik va ko‘p funksiyali birligi sifatida lug‘atlarda adekvat aks ettirishdan iboratdir.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

(1). Burger Harald. Semantic Aspects of Phrasemes. In: Phraseologie: Ein internationales Handbuch der zeitgenössischen Forschung. Berlin/New York: de Gruyter, 2007, p. 90–109.

(2). Gutzmann Daniel & Schuhmacher Petra B. Schnittstelle Semantik-Pragmatik. In: Grammatiktheorie und Empirie in der germanistischen Linguistik. Berlin/Boston: de Gruyter, 2018, p. 471–509.

(3). Safarov Sh. Pragmalingvistika. Toshkent, O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi, 2008, 56-bet.

(4). Rahmatullayev Sh., Mahmudov N., Xolmanova Z., O‘razova I., Rixsiyeva K. O‘zbek tili. Toshkent, G‘afur G‘ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2022, 7-bet.

(5). Umarxo‘jayev M.I., Nazarov K.N. Nemischa-o‘zbekcha-ruscha frazeologik lug‘at. Toshkent, “O‘qituvchi”, 1994, 57-bet.

(6). Bielińska Monika. Einige Überlegungen zu lexikographischen Kohärenzstrukturen. In: Wörterbuchstrukturen zwischen Theorie und Praxis. Berlin: de Gruyter, 2018, s. 73–84.

(7). Burger Harald. Phraseologie: Eine Einführung am Beispiel des Deutsch (5. Aufl.). Berlin, Erich Schmidt, 2015.

(8). Burger Harald et al., Phraseologie: Ein internationales Handbuch der zeitgenössischen Forschung. Berlin/ New York: de Gruyter, 2007.

(9). Hyvärinnen Irma. Zur Abgrenzung und Typologie pragmatischer Phraseologismen. In: Beiträge zur pragmatischen Phraseologie. Frankfurt am Main, Peter Lang, 2011, p. 9–43.

(10). Korhonen Jarmo. Phraseologie und Lexikografie: Phraseologismen in ein- und zweisprachigen Wörterbüchern mit Deutsch. Burlington, Vermont. The University of Vermont, 2011.

(11). Kühn Peter. Pragmatische Phraseologie: Konsequenzen für die Phraseographie und Phraseodidaktik. In: Europhras 92: Tendenzen der Phraseologieforschung. Bochum, Brockmeyer, 1994, p. 411–428.

Fayzullayeva Maftuna Odil qizi (Toshkent Gumanitar fanlar universiteti katta o‘qituvchisi; Chirchiq davlat Pedagogika universiteti mustaqil izlanuvchisi; fmaftuna04@gmail.com)

TOHIR MALIK ASARLARI PERSONAJLARINING NUTQIDA E’TIQODIY QATLAMLARNI IFODALOVCHI PRAGMATIK BIRLIKLAR

Annotatsiya. *Ushbu maqolada* Tohir Malik *asarlarida personajlar nutqida qo‘llanilgan diniy-e’tiqodiy leksika va pragmatik birliklar tahlil qilinadi. Tadqiqot davomida diniy so‘z va iboralarning leksik-semantik xususiyatlari, ularning kontekstual va pragmatik vazifalari aniqlanadi. Shuningdek, mazkur birliklarning personaj xarakterini ochish, muallif g‘oyasini ifodalash hamda o‘quvchiga ma’rifiy ta’sir ko‘rsatishdagi o‘rni yoritiladi. Tahlillar asosida yozuvchi ijodida diniy leksikaning lingvokulturologik va didaktik ahamiyati mavjudligi asoslab beriladi. Maqola natijalari o‘zbek tilshunosligida diniy-islomiy terminologiyani o‘rganishda muhim manba bo‘lib xizmat qiladi.*

Kalit so‘zlar: *Tohir Malik, diniy leksika, pragmatik birliklar, e’tiqodiy qatlam, lingvokulturologiya, kontekst, semantika, personaj nutqi, islomiy terminlar, badiiy matn.*

Файзуллаева Мафтуна Одил кизи (старший преподаватель Ташкентского университета гуманитарных наук; независимый исследователь в Чирчикском государственном педагогическом университете; fmaftuna04@gmail.com)

ПРАГМАТИЧЕСКИЕ ЕДИНИЦЫ, ВЫРАЖАЮЩИЕ РЕЛИГИОЗНО-МИРОВОЗЗРЕНЧЕСКИЕ СЛОИ В РЕЧИ ПЕРСОНАЖЕЙ ПРОИЗВЕДЕНИЙ ТОХИРА МАЛИКА

Аннотация. *В данной статье анализируются религиозно-вероисповедные лексические и прагматические единицы в речи персонажей произведений* Tohir Malik. *В ходе исследования выявляются лексико-семантические особенности религиозных слов и выражений, а также их контекстуальные и прагматические функции. Особое внимание уделяется роли данных единиц в раскрытии характера персонажей, выражении авторской идеи и оказании воспитательно-просветительского воздействия на читателя. На основе анализа обосновывается лингвокультурологическое и дидактическое значение религиозной лексики в творчестве писателя. Результаты исследования могут быть использованы при изучении религиозно-исламской терминологии в узбекском языкознании.*

Ключевые слова: *Тохир Малик, религиозная лексика, прагматические единицы, вероисповедный слой, лингвокультурология, контекст, семантика, речь персонажей, исламская терминология, художественный текст.*

Fayzullayeva Maftuna Odil qizi (Senior Lecturer at Tashkent University of Humanities; Independent researcher at Chirchik State Pedagogical University; fmaftuna04@gmail.com)

PRAGMATIC UNITS EXPRESSING BELIEF-BASED LAYERS IN THE SPEECH OF CHARACTERS IN THE WORKS OF TOHIR MALIK

Annotation. *This article analyzes religious and belief-related lexical and pragmatic units in the speech of characters in the works of* Tohir Malik. *The study identifies the lexical-semantic features of religious words and expressions, as well as their contextual and pragmatic functions. Particular attention is paid to their role in revealing character traits, expressing the author’s ideas, and influencing the reader in an educational and moral way. The analysis demonstrates the linguocultural and didactic significance of religious vocabulary in the writer’s works. The findings of the study contribute to the research of Islamic terminology in Uzbek linguistics.*

Keywords: *Tohir Malik, religious vocabulary, pragmatic units, belief layer, linguoculturology, context, semantics, character speech, Islamic terminology, literary text.*